

---

Qo'shtepa tumaniga bosh imom-xatib tayinlandi  
Xolmurodov Otabek Olimjon o'g'li Qo'shtepa tumani bosh imom-xatibi va "Muborak"  
masjidi imom-xatibi lavozimiga tayinlandi.

Bugun tuman hokimligining majlislar zalida bo'lib o'tgan yig'ilishda bosh imom-xatib  
keng jamoatchilikka tanishtirildi.

Xolmurodov Otabek Olimjon o'g'li tayinlovga qadar Marg'ilon shahridagi "Baraka"  
masjidi imom-xatibi vazifasida ishlab kelayotgan edi.

Tumandoshlarimiz nomidan domlaning kelgusi faoliyatiga muvaffaqiyat tilaymiz.

2024-11-30 17:00:29